

INSON HUQUQLARI UNIVERSALLIGI VA MADANIY RELYATIVIZM KONSEPSIYALARI O'RTASIDAGI ZAMONAVIY MUNOZARALAR

Shodmonaliyeva Ruxshona Ikromjon qizi

Toshkent Davlat Yuridik universiteti Ommaviy

huquq fakulteti DHF 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20522368>

Inson huquqlari, universal axloqiy tamoyillar asosida shakllangan bo'lib, uzoq yillar davomida xalqaro huquq va global boshqaruvning asosiy poydevorlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu huquqlar BMT ning 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va keyingi xalqaro shartnomalarda bayon etilgan bo'lib, barcha shaxslarning madaniy, ijtimoiy yoki siyosiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ularning tabiiy qadr-qimmatini va erkinliklarini himoya qilishni maqsad qilgan¹. Biroq, inson huquqlarining universalligi masalasi, ayniqsa madaniy relyativizm nuqtai nazaridan jiddiy munozaralarga sabab bo'lgan. Madaniy relyativizm — bu turli madaniyatlarning qadriyatlarini o'z joyida va o'z muhitida tushunish zarurligini himoya qiluvchi qarash. U madaniy xilma-xillikni hurmat qilishga asoslangan². Ushbu yondashuvga ko'ra, biror madaniyatda to'g'ri hisoblangan narsa, boshqa madaniyatda noto'g'ri bo'lishi mumkin va shu sababli hech bir madaniyatning qadriyatlari yoki axloqiy mezonlari ustun deb hisoblanmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan qaralganda, inson huquqlari yoki ta'lim standartlari kabi qadriyatlar ham har doim va hamma joyda bir xil qo'llanavermaydi, balki ularni mahalliy madaniyat doirasida baholash lozim, deb ta'kidlanadi. Masalan, ayollar huquqlari g'arbda erkaklar bilan tenglik tamoyiliga asoslanadi, lekin ayrim musulmon mamlakatlarda bu masalaga shar'iy mezonlar asosida yondashiladi. Zamonaviy xalqaro huquqda yuzaga kelayotgan asosiy muammo — inson huquqlarining universalligi (ya'ni barcha insonlarga hamma joyda teng darajada tatbiq qilinishi) bilan madaniy relyativizm (ya'ni huquqiy va axloqiy qadriyatlarning mahalliy madaniy sharoitga bog'liqligi) o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Universalistlar shunday da'vo qiladi: "Inson huquqlari barcha insonlar uchun bir xil bo'lishi kerak, ularning millati, dini, irqi yoki madaniyatidan qat'i nazar." Ularning fikricha, bu huquqlar tug'ma va ajralmasdir. Boshqa tomondan, madaniy relyativistlar bunday universal yondashuvni G'arb madaniyatining boshqalar ustidan madaniy hukmronligi sifatida tanqid qiladi va har bir jamiyat o'zining madaniy qadriyatlariga mos huquqiy me'yorlarni belgilash huquqiga ega ekanini ta'kidlaydi.

¹ United Nations. Universal Declaration of Human Rights (UDHR), 1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

² Carnegie Council — "Cultural relativism" available at: <https://www.carnegiecouncil.org/explore-engage/key-terms/cultural-relativism>





Ba'zi mamlakatlar, masalan Saudiya Arabistoni, Xitoy yoki Eron, og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosini qo'llashni amaliyotga kiritgan. Bu davlatlar bu jazoni o'z madaniyati, diniy an'analari va qonuniy tizimi doirasida asosli deb biladi. Biroq, ko'plab G'arbiy davlatlar va xalqaro inson huquqlari tashkilotlari o'lim jazosi inson huquqlariga, ayniqsa hayotga bo'lgan huquqqa zid deb hisoblaydi va uni bekor qilishni talab qiladi. Bu holat inson huquqlarining universalligi va madaniy relyativizm o'rtasidagi ziddiyatning yana bir yorqin misoli hisoblanadi.

Shu bois, mazkur inshoning maqsadi — inson huquqlarining universalligi va madaniy relyativizm konsepsiyalari o'rtasidagi zamonaviy munozaralarni ilmiy nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilish, xalqaro hamda milliy qonunchilik asosida ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashdan iborat. Inshoda ilmiy-huquqiy tahlil, taqqoslash va real sud amaliyoti kabi metodlardan foydalaniladi.

ILMIY-NAZARIY QISM

Shubxasiz, universallik va madaniy relyativizm o'rtasidagi bahs-munozara xalqaro inson huquqlari muhokamasining asosiy mavzusi bo'lib kelmoqda. Bu munozara inson huquqlari normalarining qo'llanilishi va qonuniyligi borasidagi raqobatlashayotgan nuqtayi nazarlar bilan xarakterlanadi. Universalistlar ayrim inson huquqlari barcha insonlarga xos va madaniy farqlardan qat'i nazar himoya qilinishi kerak, deb hisoblaydi. Aksincha, madaniy relyativistlar inson huquqlari madaniy kontekstda talqin qilinishi va qo'llanilishi lozimligini, shunda xilma-xillik hurmat qilinib, madaniy imperializmga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlaydi.

Universalistlar madaniy chegaralardan oshib ketadigan umumiy standart zarurligini, bu standart barcha shaxslarning qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishi kerakligini ta'kidlaydi³. Ular voyaga yetmaganlar nikohi kabi asosiy inson huquqlarini buzuvchi madaniy amaliyotlar madaniy asoslarda oqlanishi mumkin emas, deb hisoblaydi. Donnelly va Uhelan relyativizm ba'zan zararli amaliyotlarni qonuniylashtirish uchun noto'g'ri ishlatilishini ta'kidlaydi va qiynoqlardan ozodlik hamda kamsitilmaslik kabi ba'zi huquqlar universal ekanini qayd etadi. Shuningdek, Jon J. Tilli universalizmning shaxslarni qadr-qimmatini va farovonligiga zarar yetkazadigan madaniy amaliyotlardan himoya qilishdagi muhim roliga alohida e'tibor qaratgan⁴. Donnelly relyativizmning zararli amaliyotlarni oqlashdagi xavfini ta'kidlagan bo'lsa, Mutua G'arb g'alabasi

³ Donnelly, Jack; Whelan, Daniel J. International human rights. Routledge, 2020.

⁴ Tilley, John J Cultural relativism. Human rights quarterly, 2000, 501-547.





tanqidini keltirib, global inson huquqlari standartlarida madaniy qonuniylik zarurligini eslatadi.

Boshqa tomondan, madaniy relyativistlar inson huquqlari mahalliy jamoalar bilan uyg'unlashishi, ya'ni ular uchun mazmunli va samarali bo'lishi kerak, deb hisoblaydi⁵. Relativizmning yetakchi tarafdori Makau Mutua universalist yondashuvlarni G'arb madaniyatining hukmronligi sifatida tanqid qiladi. U inson huquqlarini mahalliy amaliyot va madaniy kontekstlarni hurmat qilgan holda talqin qilish kerakligini, jamoalarni jalb qilish orqali tushunish va qabul qilishni rag'batlantirish muhimligini ta'kidlaydi⁶.

Shaxsiy fikrimcha, universalizm va madaniy relyativizm o'rtasida muvozanat topish zamonaviy inson huquqlari himoyasining eng muhim vazifalaridan biridir. Inson huquqlari global qadriyat sifatida barcha insonlarga teng va ajralmas bo'lib, BMTning Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi (1948) kabi asosiy xalqaro hujjatlar bunga asos bo'ladi. Masalan, qiynoqlardan ozodlik, so'z erkinligi va kamsitilmaslik kabi huquqlar butun dunyo bo'ylab hamma uchun umumiy tamoyillar sifatida qabul qilingan.

Ammo bu universal tamoyillarni amalda tatbiq etishda mahalliy madaniy muhit va an'analarni hisobga olish zarurati ortib bormoqda. Masalan, ayrim mamlakatlarda an'anaviy oilaviy tuzilmalar, diniy e'tiqodlar yoki ijtimoiy normalar inson huquqlarini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Bunday holatlarda, faqatgina xalqaro standartlarni majburan kiritish madaniy qarshilik va qonuniylikka shubha tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, madaniyatlararo muloqot va mahalliy jamoalar bilan yaqindan ishlash, ularning qadriyatlarini hurmat qilish orqali inson huquqlarini targ'ib qilish yanada samaraliroq bo'ladi. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida irqiy ajratish (aparteid) davrida inson huquqlari buzilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan qattiq tanqid qilindi, lekin mahalliy ijtimoiy sharoit va tarixiy muhitni hisobga olgan holda, demokratik va inklyuziv huquqiy tizim yaratildi⁷. Yana bir misol sifatida, Nigeriyada ayollarga qarshi zo'rvonlikka oid qonunlarni kuchaytirish davomida diniy va madaniy liderlar bilan hamkorlik qilinishi muhim rol o'ynadi⁸.

HUQUQIY TAHLIL

Inson huquqlari universalligi va madaniy relyativizm konsepsiyalari o'rtasidagi munozaralar nafaqat nazariy, balki amaliy va huquqiy jihatdan ham

⁵ Merry, Sally Engle. Human rights & gender violence: Translating international law into local justice. University of Chicago Press, 2009.

⁶ Mutua, Human rights: A political and cultural critique. University of Pennsylvania Press, 2002.

⁷ Available at: <https://uz.eferrit.com/aparteid-davri-belgisi-janubiy-afrikadagi-irqiy-segregatsiya/>

⁸ Available at: <https://independent.ng/fagbemi-urges-religious-traditional-leaders-to-champion-fight-against-gbv>





murakkab masalalarni keltirib chiqaradi. Bu munozaralarning asosida inson huquqlari tushunchasining qanchalik yagona (universal) yoki madaniy jihatdan nisbiy (relativ) bo'lishi kerakligi yotadi. Shu nuqtai nazardan xalqaro va milliy qonunchilikdagi bir qator normalar va huquqiy hujjatlarni tahlil qilish lozim.

Birinchi navbatda, inson huquqlarining universalligini aks ettiruvchi asosiy xalqaro hujjat — bu 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidir. Mazkur deklaratsiyaning 1-moddasida quyidagicha deyilgan:

*"Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak"*⁹. Bu norma har bir inson, qaysi jamiyatda yoki davlatda tug'ilishidan qat'i nazar, tug'ma va ajralmas huquqlarga ega ekanligini bildiradi. Demak, inson huquqlari — bu universal, umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, ularni madaniy yoki dini tafovutlarga bog'lab cheklab bo'lmaydi. Bu g'oya, ayniqsa, inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo deklaratsiyaning o'zida ham ba'zi hollarda bu huquqlarga cheklovlar qo'yilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Jumladan, 29-moddada shunday deyilgan:

"Har bir inson o'z shaxsiyatining erkin va to'liq rivojlanishi mumkin bo'lgan jamiyat oldidagina majburiyatga ega.

Har bir inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda demokratik jamiyatda boshqalarning huquq va erkinliklari yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumiy farovonlikning adolatli talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak"

Ushbu norma esa madaniy relyativizm nuqtai nazaridan muhim. Chunki "axloq" va "jamoat tartibi" tushunchalari har bir davlatda, madaniyatda va dinlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, bir davlatda so'z erkinligi cheklanmagan bo'lsa, boshqa davlatda diniy qadriyatlarni haqorat qilmaslik tamoyili asosida bu erkinlikka cheklov qo'yiladi. Shunday qilib, xalqaro huquqiy hujjatlar, bir tomondan, inson huquqlarining universalligini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, ularni madaniy muhitiga mos ravishda qo'llash imkonini ham beradi.

Bu yondashuvning zamonaviy misoli sifatida ayrim davlatlarda (masalan, Fransiya) diniy belgilarni (hijob) jamoat joylarida taqiqlash hollari ko'rsatiladi¹⁰.

⁹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948. Available at: <https://lex.uz/docs/-7338189>

¹⁰ Available at: <https://www.ndtv.com/world-news/macron-party-endorses-ban-on-hijab-in-public-spaces-for-minors-under-15-8470564>



Bu holat universallik nuqtai nazaridan — diniy erkinlikning buzilishi boʻlsa-da, madaniy relyativizm nuqtai nazaridan — jamoat tartibi va dunyoviylik prinsipi asosida asoslanadi. Xalqaro huquq bunday qarama-qarshi yondashuvlar oʻrtasida muvozanat topishga harakat qiladi.

Inson huquqlari universalligini mustahkamlovchi asosiy xalqaro hujjatlardan biri bu – 1966-yilgi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt (International Covenant on Civil and Political Rights – ICCPR) hisoblanadi. Mazkur paktning 18-moddasida quyidagicha norma belgilangan:

“Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Ushbu huquq oʻz ixtiyori bilan oʻziga maʼqul dinni qabul qilish va eʼtiqod qilish erkini, yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda ibodat qilish, diniy va boshqa urf-odatlarini va marosimni bajarish erkini ham oʻz ichiga oladi.

Hech kim oʻz ixtiyoriga koʻra oʻz dini va eʼtiqodiga ega boʻlish yoki qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy holatga duchor etilmasligi lozim.

Ushbu norma mazmunan shuni anglatadiki, har bir inson oʻz vijdoni va eʼtiqodiga koʻra din tanlash yoki tanlamaslik, uni ochiq namoyon qilish, ibodat qilish kabi erkinliklarga ega. Bu huquq — universallik gʻoyasining aniq ifodasidir. Yaʼni, bu huquq har bir insonda tugʻma va ajralmas ravishda mavjud boʻlishi kerak.

Biroq ushbu normaning amalda qoʻllanishida koʻplab murakkabliklar yuzaga keladi. Chunki koʻpgina davlatlarda madaniy, diniy va milliy qadriyatlar yuqoridagi huquqni cheklashga sabab boʻladi. Masalan:

Ayrim musulmon davlatlarida boshqa dinlarni ochiqcha targʻib qilish yoki dinni tark etish (apostasiya) jazoga sabab boʻladi. Misol uchun, 1985-yildan 2006-yilgacha boʻlgan davrda, uch davlat — Sudan, Eron va Saudiya Arabistoni — islom dinidan chiqib ketgan (apostaziya qilgan) odamlarni oʻlim jazosiga hukm qilgan. Bu davrda toʻrt kishi shunday ayb bilan rasman qatl qilingan. Dunyo boʻyicha 23 ta musulmon koʻpchilikka ega boʻlgan davlatda islomdan chiqish jinoyat deb hisoblanadi va jinoyat kodekslarida shunga doir huquqiy jazolar mavjud (ayrim hollarda qamoq, ayrim hollarda oʻlim jazosi)¹¹.

Bu misollar shuni koʻrsatadiki, ayrim davlatlar xalqaro darajadagi universal norma (18-modda)ga amal qilishda, uni oʻz jamiyatidagi madaniy kontekstga moslashtiradi yoki qayta talqin qiladi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Inson huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni inson huquqlarini himoya qilishda universallikni taʼminlashga qaratilgan muhim huquqiy bazadir.

¹¹ Available at: <https://slife.org/apostasy-in-islam/>



Konstitutsiyaning 13-moddasida *“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”* deb ta‘kidlangan¹². Bu norma inson huquqlarining universalligini mustahkamlaydi va ularni davlat siyosatining eng yuqori qadriyatlari sifatida belgilaydi. Bunday yondashuv milliy qonunchilikda xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg‘unlikni ta‘minlaydi.

Konstitutsiyaning 19-moddasi *barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklarga egaligini kafolatlaydi hamda jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, qonun oldida teng ekanligini* ta‘kidlaydi. Bu norma madaniy relyativizmga qarshi turadi, ya‘ni diniy yoki milliy madaniyatga bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga asoslangan diskriminatsiyani rad etadi.

O‘zbekiston qonunchiligi inson huquqlarining umumiyli va ajralmasligini tan oladi, ammo amaliyotda milliy madaniyat, diniy an‘analar va ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olish orqali ba‘zi cheklovlar qo‘yiladi. Bu ikki tamoyil o‘rtasida muvozanat saqlanishga harakat qilinadi. Masalan, din erkinligi yoki gender tengligi huquqlari sohasida madaniy relyativizmning ta‘siri seziladi.

SUDLOV AMALIYOTIDAN TAHLIL

Eron sudlari 34 yoshli protestant ruhoni Yousef Nadarkhanini apostaziya — ya‘ni Islom dinidan chiqib, boshqa dinni qabul qilgani uchun o‘linga hukm qilgan. Sud hukmida aytilishicha, Nadarkhani Islom payg‘ambari Muhammadga, imomlarga va Qur‘onga ishonmaydi, nasroniylarni qabul qilgan va boshqalarni ham nasroniylikka chaqirgan. Ushbu ishda sud uchun muhim masala shundan iborat ediki, inson voyaga yetgandan so‘ng haqiqatda musulmon bo‘lganini va Islomni amalda qabul qilganligini isbotlash uchun guvohlar talab qilindi. Biroq, Nadarkhanining do‘stlari, oilasi va musulmon aloqadoshlari bu borada guvohlik bermaganligi sababli ish to‘liq emasligi aniqlangan. Shunga qaramay, agar u haqiqatan musulmon bo‘lib, ammo tavba qilmaslikda qat‘iyat ko‘rsatgan bo‘lsa, sud hukmiga ko‘ra, o‘lim jazosi qo‘llanilishi mumkin edi. Yousef Nadarkhani esa o‘z imonidan voz kechishni qat‘iyan rad etib, nasroniyligiga sodiqligini ochiq bildirdi¹³. Ushbu sud ishi inson huquqlarining, xususan, diniy erkinlik va e‘tiqod erkinligining xalqaro normalari bilan milliy qonunchilikdagi diniy qoidalar o‘rtasidagi murakkab va ziddiyatli munosabatlarni yoritadi.

Quyidagi yana bir sud ishi inson huquqlari universalligi va madaniy relyativizm o‘rtasidagi munozaralarga yorqin misol bo‘la oladi. Chililik sudya

¹² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023. Available at: <https://lex.uz/docs/-6445145>

¹³ Available at: <https://iranprimer.usip.org/index.php/blog/2011/sep/29/death-sentence-christian-leader-yousef-nadarkhani>





Karen Atala Riffo uch nafar qizining onasi bo'lib, ajrimdan so'ng bolalar ustidan vasiylik huquqini saqlab qolgan. Biroq uning bir jinsli sherigi bilan birga yashashi sababli otasi sudga murojaat qilgan. Chilining ichki sudlari, jumladan Oliy sud, 2004-yilda "ayol sherigi bilan yashash farzandlar uchun zararli bo'lishi mumkin" degan fikr bilan vasiylikni otaga bergan.

Atala Riffo bu qarorni kamsituvchi deb hisoblab, Amerika Inson huquqlari komissiyasi orqali ishni Amerika Inson huquqlari sudiga olib chiqdi. Sud ishni ko'rib chiqib, Chili davlati sudlari inson huquqlarini buzganini aniqladi. Sud xulosasiga ko'ra, onani jinsiy orientatsiyasi sababli farzandlaridan ayirish — bu shaxsiy hayotga aralashish va kamsitish hisoblanadi. Sud Chili davlat sudini shaxsiy hayot (11-modda), oila huquqi (17-modda) va kamsitilmaslik (24-modda) tamoyillarini buzgan deb topdi. Shuningdek, davlatga zararni qoplash va jinsiy orientatsiyaga asoslangan kamsitishni bartaraf etish uchun qonuniy chora-tadbirlar ishlab chiqish majburiyati yuklatildi¹⁴.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, ayrim jamiyatlarda madaniy yoki diniy qadriyatlar asosida kamsitish holatlari yuz berishi mumkin, biroq xalqaro darajada inson huquqlari universalligi ustuvor bo'lib, har bir shaxs o'z tanlovi va hayot tarziga ko'ra teng huquqlarga ega bo'lishi kerak.

XULOSA

Agar xalqaro hamjamiyat universal inson huquqlari tamoyiliga tayanmasa, an'anaviy qadriyatlar deya sodir etiladigan zo'ravonliklar kabi og'ir holatlar jiddiy baholanmay qoladi va kelgusida bunday voqealarning oldini olish yanada mushkul bo'ladi. Chunki inson huquqlari haqiqatan ham barcha insonlarga teng darajada tegishli bo'lgan umumiy qadriyat sifatida tan olinmasa, ularning mazmuni madaniy yoki diniy an'analar bilan chegaralanib qoladi.

Agar inson huquqlarining mohiyati "erkin tanlov" tushunchasiga tayanadigan bo'lsa, madaniy relyativistlar bu "erkin tanlov" g'oyasining o'zi qayerdan kelib chiqqani va qaysi madaniyatga asoslanganini so'rashadi. Bu esa inson huquqlari universalligiga shubha uyg'otadi, chunki huquqning mazmuni madaniy kontekstga bog'langan bo'lsa, u umumiy va global qadriyat sifatida qabul qilinmaydi.

Hind olimi Upendra Baxi bu masalaga oid o'z fikrida ta'kidlaganidek, mustamlakadan keyingi davlatlarda, xususan Hindistonda, "an'ana" va "zamonaviylik" o'rtasidagi ziddiyatlar kuchli namoyon bo'ladi. "Khap Panchayat" kabi norasmiy mahalliy tizimlar qadimiy ijtimoiy qadriyatlarni saqlab qolgan, shu sababli davlatning o'zi ham ana shu ijtimoiy tuzumning bir qismi sifatida

¹⁴ Available at: <https://www.humandignitytrust.org/resources/atala-riffo-and-daughters-v-chile-2012-series-c-no-239/>





cheklangan rol o'ynaydi. Natijada, bunday jamiyatlarda davlat madaniy asoslangan kamsitish va zo'ravonlik holatlariga qarshi samarali choralar ko'ra olmaydi¹⁵.

Agar "madaniyat" degan bahona bilan madaniy me'yorlarga bo'ysunmaydigan insonlarni o'ldirish yoki jazolash oqlansa, bunday yondashuv inson huquqlari tamoyillariga zid bo'ladi. Shunday ekan, bunday holatda inson huquqlari ustuvor bo'lishi shart. Bu yerda savol tug'iladi: biz jamiyatning o'z madaniy, o'zini belgilash huquqiga ustuvorlik berishimiz kerakmi (ya'ni, odat huquqlari va an'anaviy amaliyotlarni qo'llashga ruxsat berish), yoki universal inson huquqlarini himoya qilish uchun an'anaviy jamiyatlarga qarshi chiqishimiz kerakmi?

Bu savolga javoban shuni ta'kidlash kerakki, ayrim madaniy amaliyotlar — hatto ularning ildizi qadimiy bo'lsa ham — umuminsoniy huquq standartlaridan keskin og'ishni oqlay olmaydi. Chunki bunday amaliyotlar inson qadr-qimmatini poymol etadi.

Tadqiqotchi Jek Donnelly bu borada to'g'ri ta'kidlagan:

"Agar madaniy relyativizm haqiqatan ham mahalliy o'zini-o'zi belgilash kafolati sifatida xizmat qilishi kerak bo'lsa, u zulmni yashiruvchi niqob emas, balki haqiqiy va asosli madaniy qadriyatlarga tayanishi lozim. Shuningdek, biz faqat inson qadr-qimmatini kafolatlaydigan muqobil mexanizmlar mavjud bo'lsa, universal inson huquqlaridan chekinishni oqlashimiz mumkin.¹⁶"

Demak, inson huquqlarining universalligini tan olish — madaniyatlar xilma-xilligini inkor etish emas, balki har qanday madaniyat doirasida ham inson qadr-qimmatini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. Universal Declaration of Human Rights (UDHR), 1948
2. Carnegie Council — "Cultural relativism" Donnelly, Jack; Whelan, Daniel J. International human rights. Routledge, 2020.
3. Tilley, John J Cultural relativism. Human rights quarterly, 2000, 501-547.
4. Merry, Sally Engle. Human rights & gender violence: Translating international law into local justice. University of Chicago Press, 2009.
5. Mutua, Human rights: A political and cultural critique. University of Pennsylvania Press, 2002.
6. Pratiksha Baxi, Shirin M Rai & Shaheen Sardar Ali, "Legacies of Common Law: 'Crimes of Honour' in India and Pakistan" (2006) 27:7 Third World Quarterly

¹⁵ Pratiksha Baxi, Shirin M Rai & Shaheen Sardar Ali, "Legacies of Common Law: 'Crimes of Honour' in India and Pakistan" (2006) 27:7 Third World Quarterly 1239–1253

¹⁶ Jack Donnelly, "Cultural Relativism and Universal Human Rights" (1984) 6:4 Human Rights Quarterly 400–419.





7. Jack Donnelly, "Cultural Relativism and Universal Human Rights" (1984) 6:4
Human Rights Quarterly

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023

